

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA
MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

NAMANGAN DAVLAT UNIVERSITETI

TARIX FANLARI KAFEDRASI

**MANBASHUNOSLIK VA TARIXSHUNOSLIK
fanidan**

**SEMINAR MASHG'ULOTLARI UCHUN
USLUBIY KO'RSATMA**

N A M A N G A N - 2011

**“Manbashunoslik va tarixshunoslik” fanidan seminar mashg'ulotlari uchun uslubiy ko'rsatma.
(522200-tarix yo'nalishi III kurs talabalari uchun)**

Ushbu uslubiy ko'rsatmada Manbashunoslik fani seminar mashg'ulotlari uchun o'tiladigan mavzularning rejalari, rejaga muvofiq uslubiy maslahatlar, seminar mashg'ulotlariga talabalarni mustaqil tayyorgarlik ko'rishlari uchun asosiy va qo'shimcha adabiyotlar hamda hukumat qarorlari manba sifatida berilgan. Ushbu uslubiy ko'rsatmadan universitet talabalari va fan o'qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Mas'ul muharrir: t. f. d. , prof. Rasulov A. N.

Taqrizchilar: t. f. n. A. Isoqboyev, t. f. n. M. Alixonov

Muallif: B. Vaxobov

Uslubiy ko'rsatma Tarix fanlari kafedrasining 2011 yil 26 avgustdagi 1- sonli, ijtimoiy iqtisodiy fakultetining 27 avgustdagi 1- sonli ilmiy kengashida ko'rib chiqilib, o'quv jarayoniga tavsiya etilgan va NamDU o'quv-uslubiy kengashining 29 avgustdagi № 1 sonli bayonnomasida ko'rib chiqilib, nashrga tavsiya etilgan.

©Namangan Davlat universiteti 2011 yil.

Kirish

Istiqlol xalqimizning ma'naviy uyg'onishi uchun to'la imkoniyat yaratdi. Yurtimiz tarixi, qadimiy madaniyatimiz tiklanmokda va oliy qadriyat nufuziga ega bo'lmokda.

Prezidentimiz I. A. Karimov ta'kidlaganidek: «... Tarix xotirasi, ... milliy o'zlikni anglashni, ta'bir joiz bo'lsa, milliy iftixorni tiklash va o'stirish jarayonida g'oyat muhim o'rin tutadi».

O'zbekiston Prezidenti I. A. Karimov o'zining qator asarlarida kishilar dunyoqarashi va jamiyat mafkurasining shakllanishida ijtimoiy fanlarning xususan, tarix fanining o'rni beqiyosligini ta'kidlab o'tdi. Jumladan, Prezidentimiz tarix fani milliy mafkuraning shakllanishi uchun nechog'li ahamiyatli ekanligini uqtirib: «. . Tarix saboqlari insonni hushyorlikka o'rgatadi, irodasini mustahkamlaydi . . shakllanayotgan jamiyatimiz mafkurasini ham tarix buloqlaridan oziqlanadi», -degan edi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan so'ng, tarix fani sohasida ham ulkan ishlar amalga oshirildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I. A. Karimovning «O'zbekistonning yangi tarixi» markazini tashkil etish haqidagi 1996 yil 24 sentabrdagi farmoyishi, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida»gi qarori_ o'zbek tarixshunosligining bundan keyingi yo'nalishini belgilab olishda, o'zbek milliy davlatchiligi tarixini tadqiq etishda ijtimoiy-siyosiy harakatlar tarixini yoritib berishda, umuman tariximizning konsepsiyasini ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega bo'lmokda. Prezidentimiz I. A. Karimovning 1998 yil 26 iyunda bir guruh tarixchi olimlar, jurnalistlar, ijodiy soha xodimlari bilan bo'lgan uchrashuvda bildirgan fikr-g'oyalari, 1999 yil 2 fevralda «Turkiston» gazetasi, 2000 yil 8 iyunda esa «Fidokor» gazetasi muxbirining savollariga bergan javoblarida ijtimoiy jarayonlarimizning dolzarb masalalari qatori tariximiz haqida ham ko'pdan-ko'p dasturulamalar, konseptual, yangicha talqinlar ilgari surildiki, ular tarix fanining ustivor yo'nalishlarini belgilab berishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Mustaqillik yillarida tariximizni yozma manbalar asosida haqqoniy yoritish kun tartibida dolzarb masalalar qatoridan joy oldi. Prezident I. A. Karimov ta'kidlaganlaridek, «Ota-bobolarimizning asrlar davomida to'plagan hayotiy tajribalari, diniy, axloqiy, ilmiy qarashlarini o'zida mujassam etgan, bu nodir qo'lyozmalarni jiddiy o'rganish davri keldi».

Shu asosda Oliy dargohlarning manbashunoslik fanining asoslari o'qitila boshlandi. Bu ta'lim maxsus litseylarda ham o'qitilayotgani mazkur sohaga bo'lgan talabning jiddiyligini ko'rsatadi. Bu esa talaba oliy dargohga kelgunicha «Manbashunoslik» asoslaridan xabardor bo'lishini ta'minlaydi. Universitetda esa «Manbashunoslik» fani «Eski O'zbek Yozuvi», «Sharq tillari», «Davlatchilik tarixi manbalari» o'quv dasturlari bilan uzviy bog'lanib ketadi.

Manbashunoslik – tarix fanining ajralmas qismidir. Mazkur fani o'rganishdan maqsad O'zbekistonning qadimgi va o'rta asrlar tarixiga oid turli tillarda (qadimgi erondagi tosh va sopolga o'yib yozilgan kitoblar (mixsimon yozuvlar). Zoroastrizm (otashparastlik miloddan avvalgi VI- milodning VI asri) dinining muqaddas kitobi. (miloddan avvalgi VI-IV asrlarda yozilgan) eron hamda O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi madaniyati, qisman tarixini O'rganishda asosiy manba hisoblanadi. “Xavaday namak” («Podshoxnoma») qadimgi eronining 627- yilgacha bo'lgan ijtimoiy-siyosiy hayotidan baxs etuvchi afsonaviy, «Matakdani xazar dastan» («Bir ming nafar huquqiy ajrim») asarlari.

O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekistonning qadimgi va antik davridagi tarixini o'rganishda qadimgi Yunoniston va Rim tarixchilari hamda geograf olimlarning asarlari Geradot (miloddan avvalgi 490-480 yillar o'rtasi-425 y) yirik qomusiy olim. Uning «Tarix» asari Diodor (Miloddan avvalgi 90-21 yillar). «Tarixiy kutubxona» nomli 40-kitobdan iborat asari. Pompey Trog (milodgacha 1 - milodning 1 asrlari o'rtalarida yashab o'tgan). «Flipp tarix» asari bilan mashxur, Arrian Flaviy (taxminan 95-175 yil). «Iskandarning yurishlari» asarlari, bular orasida XVII asrda Sibir hamda Mo'g'ulistonda, Oltoyda hamda O'rta Osiyo, O'zbekistonda topilgan runiy bitiklar alohida qimmatga ega. Bu yozuvlarning hozir etti guruhi: Lena-Baykalbo'yi bitigi, Enisey, Mo'g'uliston, Oltoy, Sharqiy Turkiston, O'rta Osiyo bitiklari ma'lum. Bu bitiklar O'rta Osiyo, shuningdek O'zbekiston xalqlarining arablar istilosi arafasidagi ijtimoiy-siyosiy hamda madaniy hayotini o'rganishga yordam beradi. O'rta Osiyo, xususan qadimgi O'zbekistonning uzoq o'tmishidagi ijtimoiy-siyosiy tarixini o'rganishda quyidagi xitoy manbalari Sima Tsyen (taxminan miloddan avvalgi 145 yoki 135-86 yillar). Uning «Shi tsi» («Tarixiy esdaliklar») asari, Ban Gu (39-92) yirik tarixchi olim. 58-82 yillari o'zining «Tsyen' Xan' Shu» («Avvalgi Xan sulolasining tarixi») asari, Fan Xua (398-445y) avvalgi Xan sulolasining tarixchisi. «Xou Xan Shu» («Keyingi Xan sulolasining tarixi») asarlarimanbashunoslik fani uchun asosiy manbalar bo'lib xizmat qiladi.

Oliy ta'limning bakalavriatida tarixning umumiy o'rta, o'rta-maxsus va kasb-hunar ta'limi, kollejlarda qamrab olinmagan tomonlari muammoli tarzda, nazariy va seminar mashg'ulotlari asosida o'qitiladi.

Oliy o'quv yurti talabasi nazariy olgan bilimlarini seminar mashg'ulotlar orqali mustahkamlab borishi kerak. Seminar mashg'ulotlariga talaba qanday tayyorgarlik ko'rishi kerak va bu borada nimalarga e'tibor berish kerak? Seminar mashg'ulotlari qay tarzda o'tkazilishi maqsadga muvofiq? Shularni hisobga olib, Manbashunoslikni fanidan seminar mashg'ulotlari bo'yicha reja asosida o'quv-uslubiy qo'llanmani nashr etishni maqsadga muvofiq deb topdik.

Seminar-bu tegishli mavzular bo'yicha talabalarning faol ishtirokida o'tkaziladigan guruhviy mashg'ulotlarning bir shakli. Talaba seminar mashg'ulotiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida quyidagilarga e'tibor berishi zarur:

- berilgan mavzu tarkibidan o'rin olgan, yoritilishi ko'zda tutilgan masalalar mohiyatiga;
- tavsiya etilgan adabiyotlarning rejadagi masalalarni yoritishdagi o'rniga;
- mavzu bo'yicha ma'ruza materiallariga. .

Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlik davomida talabaning shu mashg'ulot masalalarini qanchalik yoritishi mezon qanday? Bizningcha, talabani qanchalik ko'p yozgani emas, balki qanchalik masalani chuqur tushungani va erkin, lo'nda qilib tushuntira olgani muhim. Mashg'ulotda boshidan oxirigacha o'qib berish talabaning zo'r tayyorgarlik ko'rganidan dalolat bermaydi. O'ylaymizki, seminar mashg'ulotlarining dastlabki kunlaridanoq, talaba yozib, tayyorlanib kelganini og'zaki, mustaqil bayon qilishga odatlanishi kerak. To'g'ri, masalani yoritilishi dastlabki paytlarda o'qib bergandek silliq, ravon chiqmasligi mumkin, ammo jonli, mustaqil, erkin mushohadaga asoslangan holda chiqishi muqarrar.

Talaba seminar mashg'uloti rejasidagi masalani yozma yoritgandan so'ng aynan ushbu masala bilan bog'liq savollarni o'zi tuzishi ham maqsadga muvofiq hisoblanadi. Zero, har qanday savol zaminida ma'lum ma'noda bilim yotadi. Shuningdek, talaba shu seminar mashg'uloti bo'yicha mustaqil tayanch iboralari hamda test savollari tuzishi ham bilimni mustahkamlash uchun xizmat qiladi. Tuzgan savollaringizdan yana guruhdoshingiz seminar mashg'ulotida rejadagi masalni yoritib bo'lgandan keyin ham foydalnishi mumkin. Aniqrog'i, kursdoshingizga savol bilan murojaat qilishingiz mumkin. Seminar mashg'ulotlariga tayyorgarlikda tarixiy, siyosiy terminlar mohiyatini o'rganish ham zarur hisoblanadi. Seminar mashg'ulotlari talabalar tomonidan bahsli o'tkazilsa, yanada esda qoladigan bo'ladi. Albatta, talaba bahsli masalalar bo'yicha o'z fikrini bayon qilishga hamda uni asoslashga harakat qilishi kerak.

O'z navbatida talabalar munozaralar yuritish madaniyatini ham egallamoqliklari zarur. Zero, har bir bahs-munozara natijasi murosasizlikka emas, haqiqatni, masala mohiyatini yoritishga xizmat qilishi kerak.

Ushbu uslubiy qo'llanmada mustaqil ta'lim mavzulari ham berildi. Albatta, keltirilgan mustaqil ta'lim mavzularini doirasi kengayishi, takomillashtirilishi ham mumkin. Yana shuni qayd etish lozimki, seminar mavzulari ma'ruza mavzulari bilan aynan bir xil emas. Bundan maqsad shuki, talaba ma'ruzada ko'tarilgan muhim masalalardan birini chuqur va atroflicha o'rganib, seminarga tayyorgarlikda yanada kengroq ma'lumotga ega bo'lishi ko'zda tutilgan.

Hurmatli talabalar! Mazkur o'quv-uslubiy qo'llanma sizni Manbashunoslikni chuqurroq o'rganishingizda doimiy hamkoringiz, maslahatchingiz bo'lib qoladi deb umid qilamiz. O'ylaymizki, ushbu o'quv qo'llanma ham juz'iy kamchilik va nuqsonlardan xoli bo'lmasligi mumkin. Bu borada mutaxassislar tomonidan bildiriladigan taklif va mulohazalarni samimiyat bilan qabul qilami.

II. 2 Seminar mashg'ulotlar, ularning mavzulari.

№	Seminar mashg'ulot mavzulari	Soat
1	Yozma tarixiy manbalarning asosiy guruhlar va ulardan ilmiy maqsadda foydalanish	2
2.	O'rta Osiyo xalqlarining eng qadimgi tarixiga doir manbalar	2
3	O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri tarixiga oid manbalar	2
4.	O'rta Osiyoning o'rta asrlar tarixiga oid xitoy va turk tilidagi manbalar	
5.	O'rta Osiyoning rivojlangan o'rta asrlar davri tarixiga oid arab tilidagi manbalar.	2
6.	O'rta Osiyo rivojlangan o'rta asrlar davri tarixi oid fors-tojik talidagi manbalar	2
7	Sayyoh va elchilarning esdaliklari tarixiy manba sifatida.	2
8.	Xonliklar davri tarixiy manbalari	2
9.	Xonliklar davri tarixiga oid rus va evropa manbalari	2
10.	Rossiyasi imperiyasi mustamlakachiligi davri manbalari	2
11.	Turkiston davriy matbuoti tarixiy manba sifatida	2
12.	Sovet davri tarixi manbalari	2
13.	Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarixiga oid manbalar	2
14.	O'zbekiston tarixi manbashunosligining dolzarb masalalari	2
	Jami	28

Amaliy mashg'ulotlarning mavzulari

1- mavzu: Yozma tarixiy manbalarning asosiy guruhlari va ulardan ilmiy maqsaddarda foydalanish

Reja

- 1. Yozma tarixiy manbalarning asosiy guruhlari**
- 2. Qonunchilik aktlari va davlat boshqaruv organlarining ish yuritish hujjatlari**
- 3. Siyosiy partyushar va jamoat tashkilotlarining hujjatlari tarixiy manba sifatida**
- 4. Memuar adabiyotlar tarixiy manba sifatida**
- 5. Davriy matbuot materiallari va statistik manbalar**

Rejada qo'yilgan masalalarni yoritish uchun quydagilarga e'tiboringizni qarating (keyingi rejalar ostida «E'tibor bering» deyiladi. -tuzuvchilar)

Tarixiy tadqiqot uchun manbalarni turkumlashning ahamiyati. Manbalarini turkumlash tamoyillari. Turkumlashdagi asosiy tamoyillar: manbalarni mazmuniga, kelib chiqishiga va yo'nalishiga qarab ajratish. Tarixiy manba. Manbalarning asosiy turlari: moddiy yodgorliklar, ma'naviy yodgorliklar.

Manbashunoslik sohasidagi tadqiqot. Manbalarni aniqlash va uning ilmiy ahamiyati. Manbalarni mavzular tartibida saralash va uning asosiy shartlari. Manbalarni tahlil qilish uslublari. Manbalarni tashqi va ichki belgilariga qarab tahlil qilish. Manbalarni umumiy tavsiflash va alohida bir manbani tadqiq etish. Matnni aniqlash. Asl manba. Manba yozilgan davr va joy, unda tarixiylikning in'ikosi. Manbaning yaratilish tarixi shart-sharoit va undagi tarixiy haqqoniylik mezonini (hujjatlarda tarixiylik deyarli real aks etgan bo'ladi).

Tarixiy manbalarning shakl va mazmuniga qarab guruhlarga bo'linishi: moddiy (ashyoviy) manbalar; etnografik manbalar; lingvistik manbalar; og'zaki manbalar (fol'klor). Yozma manbalar va ularning asosiy turlari. Asl manbadan ko'chirilgan nusxalar. Nusxalarning asl manbaga yaqinligini aniqlash muammolari. Tarixiy manba haqida umumiy xulosalar chiqarish. Yozma manbalar. Yozma manbalarning asosiy xillari. Adabiy manbalar (yilnomalar, xronikalar va h. k.). epik yodgorliklar. Aktlarga oid hujjatlar (yorliqlar, aktlar, xatlar, yuridik - Qozixona hujjatlari va b.). Arxiv manbalar. Normativ va ijroiya hujjatlari, statistik materiallar-tarixiy manba. Jamoat tashkilotlari hujjatlari tarixiy manba sifatida. Memuar adabiyotlar tarixiy manba sifatida. Davriy matbuot materiallari va statistik manbalar.

Jamoat va davlat arboblari tomonidan yozilgan esdalik va kundaliklar davriy matbuot materiallari. Gazeta va jurnallar sahifalari. Maqola va xabarlar. Statistik manbalar (lotincha "statu"s-holat) jamiyat taraqqiyotiga doir turli miqdoriy o'zgarishlarni ko'rsatib beruvchi hisobot va ma'lumotlar. Diplomatik hujjatlar. Xalqaro shartnomalar, turli davlatlar rahbarlarining o'zaro maktublari, elchilarning o'z hukumatlariga yuborgan hisobot va ma'lumotnomalari.

2 - mavzu: O'rta Osiyo xalqlarining qadimgi tarixiga doir manbalar

Reja

- 1. Qadimgi Eron manbalari, Behistun yozuvlari.**
- 2. «Avesto» va paxlaviy tilidagi manbalar.**
- 3. Grek tarixchi - olimlarining asarlari.**
- 4. Rim tarixchi - olimlarining asarlari.**

E'tibor bering:

O'rta Osiyo yashagan eng qadimgi xalqlar xaqida ma'lumot beruvchi ilk manbalar qatoriga eron epigrafik yodgorliklari hamda toshga, qoyalarga, sopol va yog'ochga o'yib yozilgan matnlar tushuniladi. Qadimgi epigrafik manbalar (Behistun, Persepol', Naqshi Rostam, Doro I, Ayratombitliklari). Avesto-qadimgi yozma yodgorlik; Avestoda O'rta Osiyo tavsifi. Qadimgi Hind manbalarida O'rta Osiyo haqida ma'lumotlar. Qadimgi Yunon va Qadimgi Rim mualliflari asarlari O'rta Osiyoning qadimgi davr tarixiga oid muhim manba: Gerodot, Diodor, Aristotel', Pompey Trog, Arrian, Kvint Kurtsiy Ruf, Gay Pliniy, Plutarx, Polibiy, Strabon, Klavdiy Ptolemey asarlari.

3 - mavzu: O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri tarixiga oid manbalar

Reja

- 1. O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlarda jtimoiy siyosiy vaziyat**
- 2. Vizantiya va arman voqeanavistlarining ma'lumotlari**
- 3. So'g'd manbalari**

E'tibor bering:

Vizantiya va arman manbalari. Qadimgi turkiy manbalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida. runa bitiklari: Lena-Baykalbo'yi, Enisey, Mongoliya, Oltoy, SHarqiy Turkiston va O'rta Osiyodan topilgan bitiklar (To'nyuquq bitigi, Kultegin bitigi, Bilga xoqon bitigi, Ongin bitigi va b.).

Sug'd hujjatlari o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid muhim manba. Muh qal'asidan topilgan hujjatlar, Afrosiyobdan topilgan sug'd hujjatlari, Sharqiy Turkistondan topilgan sug'd hujjatlari va boshqalar.

4 - mavzu: O'rta Osiyoning ilk o'rta asrlar davri tarixiga oid turk tilidagi manbalar

Reja

- 1. Qadimgi xitoy manbalari**
- 2. Ilk O'rta asrlar tarixiga oid Xitoy manbalari**
- 3. Turk tilidagi manbalar o'rganilishi. Enisey, Mo'g'iliston bitiklari.**
- 4. Qirg'iziston, Sharqiy Turkiston, Qozog'iston va Oltoy bitiklari.**

E'tibor bering:

O'rta Osiyoning ilk O'rta asrlar davri tarixiga oid manbalar Xitoy solnomalari O'rta Osiyo tarixi bo'yicha qadimgi manba sifatida. Xou-Xan-shu («Keyingi Xan sulolasi tarixi»), Bey-shu («Shimoliy sulolalar tarixi»), Suy-shu («Suy xonadoni tarixi») va b. Qadimgi manbalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida

Qadimgi turkiy manbalar ilk o'rta asrlar O'rta Osiyo tarixiga oid manba sifatida. runa bitiklari: Lena-Baykalbo'yi, Enisey, Mongoliya, Oltoy, SHarqiy Turkiston va O'rta Osiyodan topilgan bitiklar (To'nyuquq bitigi, Kultegin bitigi, Bilga xoqon bitigi, Ongin bitigi va b.).

5 - mavzu: O'rta Osiyoning rivojlangan o'rta asrlar davri tarixiga oid arab tilidagi manbalar

Reja

- 1. Arab tilidagi manbalar.**
- 2. Arab tilidagi tarixiy asarlar.**
- 3. Arab tilidagi tarixiy-jug'rofiy va adabiy asarlar,**

E'tibor bering:

Arab yozuvidagi (arab, fors turkiy tillardagi manbalar) Arab yozuvidagi dastlabki manbalar tarixidan. Arab tilidagi yozma manbalar: Qur'oni Karim va uning tafsirlari; Hadislar; Muhammad payg'ambar va xalifalar hayotiga oid asarlar. Fiqhga oid manbalar. Arab tilida yozilgan turli fan sohalariga oid manbalar (filologiya, lug'atlar, falsafiya, tibbiyot, geografiya va b.). Arab tilidagi tarixiy asrlar (al-Madoiniy, Tabariy, al-Balazuriy, al-Ya'qubiy, Beruniy va b.). Fanlar tasnifiga oid asarlar (Ibn an-Nadim, Abu Abdulloh al-Xorazmiy va b.). IX-XIII asrlar davomida arab tilidagi manbalarning ko'payishi. Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar. Arab yozuviga o'tish bosqichlari. Arab yozuvidagi turkiy yozma meros. O'rta Osiyo tarixi aks etgan IX-XV asrlarda yozilgan arab tilidagi yozma manbalar: al-Madoiniy «Axbor al-xulafa», al-Ya'qubiy «Kitob al-buldon», Balazuriy «Kitob futuh al-buldon», Tabariy «Tarix ar-rusul va-l-muluk», Ibn Fazlon «Risola», al-Mas'udiy «Muruj az-zahab», Utbiy «Tarixi YAmīniy», Abu Abdulloh al-Xorazmiy «Mafotih al-ulum», Abu Rayhon Beruniy «Osor al-boqiya», Mahmud Koshqariy «Devonu lug'at at-turk», Sam'oniyy «Kitob al-ansob», Ibn al-Asir «Al-Kamil fi-t-tarix», Yoqut Hamaviy «Mu'jam al-buldon», Muhammad Nasaviy «Sirat as-sulton Jaloliddin», Jamol qarshi «Mulhaqat as-surog'».

6 - mavzu: O'rta Osiyo rivojlangan o'rta asrlar davri tarixi oid fors-tojik talidagi manbalar

Reja

- 1. Fors-tojik talidagi tarixiy asarlar**
- 2. Fors-tojik tilidagi jug'rofiy va adabiy asarlar, tazkiralalar**
- 3. Temur va temuriylar davri tarixiga oid manbalar**

E'tibor bering:

Forsiy tilda arab yozuvida yozilgan dastlabki manbalar. Arab yozuviga o'tish bosqichlari. Forsiy matnlardagi xat turlari. Xattotlik-kasb. Forsiy yozma merosning ko'payib borishi. eng qadimgi forsiy qo'lyozmalar (islomga oid manbalar; turli fan sohalariga oid asarlar). Bizgacha etib kelgan forsiy yozma meros haqida (Tarjimai «Tarixi Tabari», hudud-ul-olam, Jahonnoma, «Zayn-ul-axbor» Gardiziy asari; Firdavsiy «SHohnoma» va b.).

O'rta Osiyo IX-XV asrlar tarixiga oid forsiy yozma manbalar: Narshaxiy «Buxoro tarixi», «Hudud ul-olam», Nizomulmuluk «Siyosatnoma», Nizomi Aruzi Samarqandiy «Chor maqola», Gardiziy «Zayn ul-axbor», Abulfazl Bayhaqiy «Tarixi Mas'udiy», Avfiy «Javomi` al-hikoyot», Juvayniy «Tarixi jahongushoy», Rashidaddin «Jome` at-tavorix», Hamdalloh Kazviniiy «Tarixi guzida». Temuriylar saltanati tarixiga oid forsiy tarixiy yozma manbalar: Nizomiddiy Shomiy «Zafarnoma», Muiniddin Natanziy «Muntaxab at-tavorix», Sharafiddin Ali Yazdiy «Zafarnoma», Abdurazzoq Samarqandiy «Matla as-sa`dayn», Mirxond «Ravzat as-safo».

7 - mavzu: Sayyoh va elchilarning esdaliklari tarixiy manba sifatida

Reja

- 1. Sayyoh va elchilarning esdaliklari tarixiy manba sifatida**
- 2. Ahmad ibn Fadlan, Abu Dulaf, Ibn Batuta.**
- 3. Marko Polo, Rui Gonzale Klavixo, Iogan Shilt'berger.**

E'tibor bering:

Sayyoh va elchilarning esdaliklari tarixiy manba sifatida. Axmad ibn Fadlan, Abu Dulaf, Ibn Batuta. Marko Polo, Rui Gonzale Klavixo, Iogan Shilt'berger, Antoniy Jenkinson, Ivan Xoxlov, Boris Pazuxin, Semyon Pazuxin, Vasliy Dovudov, Muhammad Yusuf Qosimov, Florio Beneveni, Beneveni missiyasi hujjatlari, Dmitriy Gladishev, Ivan Muravinlarning yozma hisobotlari, rus elchisi Shubay Arslonov hisoboti, Danila Rukavkin «Orenburgdan Xiva va Buxoroga eltguvchi yo'l tavsifi», Filipp Efremov "To'qqiz yillik sargardonlik", Burnashev, Pospelov rus muhandislarining safar to'rtinchi hisobotlari Filipp Nazarov "O'rta Osiyo erlari va xalqlari haqida qaydlar", eversman "Orenburgdan Buxoroga sayohat", Budrin "1820yilda ruslar Buxoroda", Nikolay Potanin "Qo'qon xonligi to'g'risida qaydlar", Ivan Vitkevich esdaliklari, Konstantin Butenev, Danilevskiy. "Xiva xonligi tavsifi", Aleksey Butakov "Orol dengizi bo'ylab sayoxat kundaligi", Aleksandr Byorn "Buxoroga sayohat", Arminiy Vamberi "O'rta Osiyoga sayohat"

8 – mavzu: Xonliklar davri tarixiy manbalari

Reja

- 1. XVI– XIX asrning birinchi yarmi tarixiga oid o'zbek tilidagi manbalar.**
- 2. Xonliklar davri tarixiga oid fors- tojik tilidagi manbalar.**
- 3. Buxoro, Xorazm, Qo'qon tarixnavislik maktablari**

E'tibor bering:

XVI asrning boshida eski O'zbek tilida yozilgan muhim tarixiy manbalardan biri «Tavorixi guzide, nusratnoma» («Tanlangan tarix, g'alaba kitobi») asari. Tarixchi olim Abdullox nasrullohiy 1525 yilda «Zubdat al-asar» nomli asarida XVI asrning birinchi choragida Xuroson va Movarunnaxrda sodir bo'lgan voqealar birmuncha keng yoritilgan.

O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid yozma manbalar

O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid fors-tojik tilidagi yozma manbalar: Mulla Shodiy «Fathnoma», Fazlulloh ibn Ruzbexon «Mehmonnomai Buxoro», Xondamir «Habib as-siyar», Zayniddin Vosifiy «Badoe` ul-vaqoe'», Mirzo Muhammad Haydar «Tarixi Rashidiy», Hofiz Tanish Buxoriy «Abdullanoma», Mahmud ibn Valiy «Bahr ul-asror», Xoja Samandar Termiziy «Dastur al-muluk», Muhammad YUsuf Munshiy «Tarixi Muqimxoniy», Mir Muhammad Amin Buxoriy «Ubaydullanoma», Abdurrahmon Davlat «Tarixi Abulfayzxon», Mir Muhammad Salim «Silsilat as-salotin», Muhammad Vafo Karminagiy «Tuhfai xoniy», Mir Olim Buxoriy «Fathnomayi sultoni», Axmad Donish «Navodir al-vaqoe'», Abduazim Somiy «Tarixi salotini mang'itiya», Mirzo Salimbek «Tarixi Salimiy», Muhammad Solih «Tarixi jadidayi Toshkand», Niyoz Muhammad Xo'qandiy «Tarixi Shohruxiy».

O'rta Osiyoning XVI-XIX asrlar tarixiga oid eski o'zbek tilidagi yozma manbalar: anonim «Tavorixi guzida» («Nusratnoma»), Muhammad Solih «Shayboniynoma», Zahiriddin Bobur «Boburnoma», Abulg'ozzi Bahodurxon «Shajarayi tarokima», «Shajarayi turk va mo'g'ul», Munis va Ogahiy «Firdavs ul-iqbol», Mirzo Olim Toshkandiy «Ansob as-salotin».

9 - mavzu: Xonliklar davri tarixiga oid rus va yevropa manbalari

Reja

- 1. O'rta Osiyo xonliklarini tashqi aloqalari.**
- 2. Rus elchilari, savdogarlari va sayyohlarining hisobot va safarnomalari**
- 3. Yevropalik elchi va sayyohlarning xonliklar to'g'risidagi ma'lumotlari**

E'tibor bering:

Xonliklar davri tarixiga oid rus va evropa manbalari. Buyuk geografik kashfiyotlardan so'ng Buyuk Ipak yo'li o'z ahamiyatini yo'qotganligi sababli O'rta Osiyo jahon xo'jaligi va savdosidan chetga tushib qoldi. Vatanimizning Ovrupa mamlakatlari bilan savdo va diplomatik aloqalari batamom to'xtab qolmadi. XVI asrdan boshlab O'rta Osiyo va Rossiya O'rtasidagi aloqalar xar tomonlama kuchayib bordi. Ayniqsa qozon va Astraxan' xonliklari Rossiya tomonidan bosib olingandan so'ng bunday aloqalar yanada rivojlanganligini ko'rishimiz mumkin.

XVII-XVIII asrlar rus va evropa tillaridagi manbalarda O'rta Osiyo tavsifi: I. D. Xoxlov ma'lumotlari; «Kniga Bol'shomu cherteju»; B. A. Pazuxin va S. I. Pazuxin ma'lumotlari; Florio Benevini axboroti; V. N. Tatig'ev «Leksikon geograficheskoy i politicheskoy»; D. Gladshhev va Muravin ma'lumotlari; F. Efremov safarnomasi, T. Burnashevning O'rta Osiyoga safari xotiralari; F. Nazarov safarnomasi; N. Murav'ev ma'lumotlari; E. K. Meyendorf safarnomasi; G. Spasskiy «Aziatskiy vestnik» materiallari va boshqalar.

10 - mavzu: Rossiya imperiyasi mustamlakachiligi davri manbalari

Reja

- 1. O'rta Osiyoning Rossiyasi imperiyasi istilo arafasida ijtimoiy siyosiy ahvol**
- 2. O'rta Osiyoning Rossiyasi imperiyasi tomonidan istilo qilinish tarixiga oid yozma manbalar**
- 3. Qonunchilik aktlari va mustamlakachi ma'muriyatning ish yuritish hujjatlari**
- 4. Siyosiy nartiyalar va tashkilotlar hujjatlari**
- 5. Rus tadqiqotchi - olimlarining asar va esdaliklari**

E'tibor bering:

O'lkamizni bosib olishda bevosita ishtiroq etgan rus zobitlarining esdaliklari xam mazmun jixatdan rasmiy hujjatlarga yaqindir. V. Tixmenevning "Xiva xonligining zabt etilishi", V. Vereshchagining "1868 yilda Samarqand: Rassom xotiralari" va boshqa memuar asarlarda rus bosqini qatnashchilari urushning jonli manzaralarini tasvirlaydilar. N. XO'qandiyning "tarixiy Shoxruxiy", Ibratning "Tarixi Farg'ona", Muxammad Fozilbekning "Mukammal tarixi Farg'ona" asarlarida rus istilochisiga daxldor voqealar batafsil bayon etiladi.

O'rta Osiyoning XIX asr ikkinchi yarmida Rossiya tomonidan istilo qilinishi. Turkiston general-gubernatorligining tashkil etilishi. Turkiston general-gubernatorligi kantselyariyasi materiallari O'rta Osiyo tarixiga oid manba. Turkistonni o'rgangan rus olimlarining asarlari tarixiy manba sifatida. Turkiston arxeologiya havaskorlari to'garagi materiallari muhim tarixiy manba.

XIX asr ikkinchi yarmi va XX asr boshlaridagi Turkistonga oid statistik ma'lumotlar, arxiv materiallar va davriy matbuot («Turkestanskije vedomosti», «Turkestanskiy vestnik» va b.) xabarlar tarixiy manba sifatida.

O'rta Osiyo Rossiyaga qo'shib olingandan so'ng bu erda turli siyosiy tashkilotlar va partiyalar vujudga keldi va faoliyat ko'rsatdi. Ular O'z faoliyat davomida qator hujjatlar yaratdilar. Bu hujjatlar ularning siyosiy maqsadlari va faoliyatlari yo'nalishlarini aniqlashda katta rol o'ynadilar. Siyosiy tashkilotlar va partiyalar hujjatlari ularning dasturi va maromnomalaridan, ish yuritish hujjatlaridan, varaqlar, mukotiba va boshqalardan iboratdir.

11 - mavzu: Turkiston davriy matbuoti tarixiy manba sifatida

Reja

- 1. Turkistonda davriy matbuotning vujudga kelishi va rivojlanishi**
- 2. "Turkestanskiy sbornik" tarixiy manba sifatida**
- 3. Mustamlakachilik davri matbuot materiallarining janr va uslublari**

E'tibor bering:

Turkiston davriy matbuoti tarixiy manba sifatida. Turkistonda davriy matbuotning asosiy turlari. Asosiy gazeta va jurnallar, ulardagi maqolalarning xarakteri va ularning tarixiy manba sifatidagi roli. Viloyatlarning statistik obzori. Turkistonda matbuot bilan ishlash metodikasi va ushbu matbuotlarning ma'naviy tahlili.

12 - mavzu: Sovet davri tarixi manbalari

Reja

- 1. Oliy qonun chiqaruvchi va ijroiya organlari hujjatlari.**
- 2. Davlatmuassasalarining ish yuritish hujjatlari**
- 3. Partiya va jamoat tashkilotlari hujjatlari**
- 4. Statistik manbalar, davriy matbuot materiallari, esdaliklar**

E'tibor bering:

Sovet davri tarixi manbalari. O'zbekistonning XX asr tarixiga oid manbalar. Rossiyadagi fevral' inqilobi va Turkistondagi siyosiy jarayonlarni aks ettiruvchi materiallar. Oktyabr voqealaridan keyin Turkistonda Sho'rolar hukumati tashkil topishi va yangi davlat tarixi bilan bog'liq manbalar. Sovet hokimiyatining dekretlari. Sovetlar s'ezdlarining qarorlari, partiya tashkilotlarining hujjatlari manba sifatida. Turkistonda muxtoriyatchilik va istiqloqlilik harakati tarixiga oid hujjatlar tarixiy manba sifatida. O'rta Osiyoda milliy chegaralash tarixiga oid hujjatlar. O'zbekistonning 1925-1941 yillardagi tarixini yorituvchi manbalar; qatag'onlar tarixi aks etgan hujjatlar. 1941-1945 yillar urushi tarixiga oid materiallar. O'zbekistonning 1945-1991 yillardagi tarixiga oid hujjatlar. Statistik to'plamlar. Ish yuritish hujjatlari.

13 - mavzu: Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarixiga oid manbalar

Reja

- 1. Mustaqil O'zbekiston tarixiga oid manbalarning umumiy tavsifi**
- 2. Oliy Majlis hujjatlari va Davlat ijroiya organlari ning ish yuritish hujjatlari tarixiy manba sifatida**
- 3. Prezident I. A. Karimov asarlarining tarixiy manba sifatidagi ahamiyati**
- 4. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari hujjatlari. Davriy matbuot materiallari**

E'tibor bering:

Mustaqil O'zbekiston Respublikasi tarixiga oid manbalar. O'zbekiston Respublikasining mustaqillikka erishuvi, demokratik xuquqiy davlatni shakllantirish jarayonlarini yorituvchi hujjatlardan manba sifatida foydalanishning yo'llari. Xozirgi bosqichda manbalar bazasining shakllantirish. Hujjatli materiallar xilma-xilligi, xususiyatlari, ilmiy publistik va maxsus asarlar, matbuot, foto- kino hujjatlar, ashyoviy va boshqa manbalar, O'zbekiston Oliy Majlis hujjatlari tarixiy manba sifatida. Davlat tashkilotlarining ish yuritish hujjatlari. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari hujjatlari. Statistik manbalar va davriy matbuot materiallari. O'zbekiston Respublikasi davlat muassasalari ish yuritish hujjatlari. Mustaqil O'zbekistonning markaziy va mahalliy boshqaruv organlarida vazirliklar, hokimliklar va xokazo) yaratilgan hujjatlar (buyruqlar, farmoyishlar, yo'riqnomalar, qarorlar, bayonnomalar, ma'lumotnomalar va hokazo). O'zbekistondagi siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlari hujjatlari mustaqillik davrida respublikamizda tashkil topgan partiya va jamoat tashkilotlarning faoliyati davomida yaratilgan hujjat va materiallar (dasturlar, nizomlar, rezolyutsiyalar, qarorlar, bayonnomalar, murojaatnomalar, hisobotlar va hokazo). Statistik manbalar - davlat organlari tomonidan to'plangan va mustaqil davlatimiz taraqqiyotini o'zida aks ettirgan raqamli ma'lumotlar. Davriy (vaqtli) matbuot materiallari- boshqa davriy nashrlar va Internet orqali e'lon qilingan faktik ma'lumotlar va axborotlar

14 - mavzu: O'zbekiston tarixi manbashunosligining dolzarb masalalari

Reja

1. **Mustaqillik davrida tarix faniga e'tibor.**
2. **Mustaqillik davrida manbashunoslik sohasida amalga oshirilgan ishlar**
3. **O'zbekiston tarixi manbashunosligi: muammolar va ularni echish yo'llari**

E'tibor bering:

O'zbekiston tarixi manbashunosligining dolzarb masalalari. O'zbek davlatchiligi va O'zbek millatining kelib chiqish muammolari. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi tarix instituti faoliyatini takomillashtirish to'g'risida"gi (1998 yil 28 iyul) qarori

Fanning metodik ta'minoti:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –T. : "O'zbekiston". 2008.
2. Каримов И. А. Тарихий хотирасиз келажак йўқ. Т. 1998 .
3. "Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академияси тарих институти фаолиятини такомиллаштириш тўғрисида" Ўзбекистон Республикаси . Вазирлар Маҳкамасининг 1998 йил. 24 йилдаги қарори. "Халқ сўзи" 1998 йил. 25 июл.
4. Абдурахмонов Г. Ўзбек халқи ва тилининг шаклланиши ҳақида Т. 1999
5. Абдуҳолик Абдурасул ўғли. Қадимги Фарғона тарихидан. – Т. , 2002.
6. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. – Т. : "Фан". 1991.
7. Арслонзода Р. Манбашунослик: Маъруза матни. Фарғона. 2003.
8. Аҳмедов Б. Сохибқирон Темур. Тошкент. 1994 йил.
9. Аҳмедов Б. Тарихдан сабоқлар. –Т. : "Ўқитувчи". 1994.
10. Аҳмедов Б. Ўзбекистон тарихи манбалари. (қадимги замон ва ўрта асрлар). – Т. , 2001.
11. Аҳмедов Б. Хондамир. Фан. 1965.
12. Аҳмедов Б. А. Историко-географическая литература Средней Азии XVI-XVIII вв. Письменные памятники. – Т. , 1985.
13. Аширов А. Ўзбек халқининг қадимий эътиқод ва маросимлари. – Т. 2007.
14. Библиография арабских рукописей. – М. , 1982.
15. Бичурин Н. Я. (Иакинф). Собрание сведений о народах обитавших в Средней Азии в древние времена. Т. I-II. – М. -Л. , 1950; т. III. – М. -Л. , 1953.
16. Бўриев О. Темурийлар даври ёзма манбаларида Марказий Осиё. – Т. , 1997.
17. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиётшунослиги тарихи. X-XIX асрлар. Тошкент. 1993 йил.
18. Гумилев Л. Н. Древние тюрки. – М. , 1967.
19. Давлатшоҳ Самарқандий. Шоирлар бўстони. – Т. 1981.
20. Жалилов О. "Тарихи Рашидий"нинг иловаси. Шарқшунослик-5. 1994 й.
21. Заҳириддин Муҳаммад Бобир. Бобирнома. – Т, 1966.
22. История Узбекистана в источниках. Известия путешественников географов и ученых XVI перв. пол. Составитель Б. В. Лунин. – Т. : Фан, 1988
23. История Узбекистана в источниках. Составитель Б. В. Лунин. – Т. , 1984.
24. Исхаков М. М. Центральная Азия в системе мировой письменной культуры. –Т. 2008.
25. Камалиддинов Ш. С. Историческая география Южного Согда и Тохаристана по арабоязычным источникам IX-начала XIII вв. – Т. , 1996.
26. Madraimov A. , G. Fuzailova. Manbashunoslik. – Т. 2008
27. Маллаев. М. Ўзбек адабиёти тарихи (1-китоб) Тошкент.
28. Материалы по истории киргизов и Киргизии. – М. , 1973.
29. Маҳмуд Кошғарий. Девону лугат ат-турк. – Т. , 1960-1963
30. Маънавият юлдузлари. –Т. 2001.
31. Мирза Муҳаммад Хайдар. Тарихи Рашиди. // Введение, перевод с персидского А. Уринбаева, Р. П. Джалиловой, Л. М. Епифановой. Примечания и указатели Р. П. Джалиловой и Л. М. эпифановой. – Т. , 1996.
32. Мукминова Р. Г. О некоторых источниках по истории Узбекистана нач. ХВИв. , Труды ИВ АН Уз. вып. III, Тошкент. 1954
33. Муҳаммад Юсуф Баёний. Шажарайи Хоразмшоҳий. –Т. 1994.
34. Насим Раҳмон. Турк ҳоконлиги. Т. 1997
35. Низомиддин Шомий. Зафарнома. – Т. : "Ўзбекистон". 1996.
36. Путешествия Иоганна Шильтбергера по Европе, Азии и Африке. Т. : «Шарк» 1997

37. Ражапов В. Манбашунослик (маърузалар матни). Наманган. 2001 йил.
38. Rajapov V. Manbashunoslik (ma'ruzalar matni). Namangan. 2006
39. Рукописная книга в культуре народов Востока. Кн. I. – М., 1987.
40. Саидкулов С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. (1-қисм). Т. 1993
41. Собрание Восточных рукописей Института востоковедения АНРУз. 1-Х1 тт. –Т., 1952-1987.
42. Стори Ч. А. Персидская литература // Библиографический обзор, ч. I, II, III; пер. и переработ. и дополн. Ю. Е. Брегель. – М., 1972.
43. Табари. История табари. Перев. С арабского В. И. Беляева. – Т., 1987.
44. Темурийлар бунёдкорлиги давр манбаларида. –Т. 1997.
45. Турон қавмлари – Т.: “Истиклол”. 2008.
46. Уложения Тимура. –Т.: “Чўлпон”. 1992.
47. Усмон Турон. Туркий халқлар мафқураси. Т.: «Чўлпон» 1995.
48. Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. Т. I-II. – Т., 2000-2001.
49. Ўзбекистон халқлари тарихи. 1- жилд. –Т.: “Фан”. 1992.
50. Ўзбекистон халқлари тарихи. 2- жилд. –Т.: “Фан”. 1993.
51. Ўзбекистоннинг янги тарихи: Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. – Т., 2000.
52. Ўзбекистоннинг янги тарихи: 3-қитоб. Мустақил Ўзбекистон тарихи. -Т. 2000
53. Ўринбоев. А. Тошкент Муҳаммад Солиҳ (XIX аср) тавсифида. Т. Фан. 1983.
54. Фозилбек Отабек ўғли. Дукчи Эшон воқеаси. –Т.: “Чўлпон”. 1992
55. Халидов А. Б. Арабские рукописи и арабская рукописная традиция. – М., 1985.
56. Ҳерман Вамбери. Бухоро ёхуд Мовароуннахр тарихи. - Т. 1990.
57. Холбеков М. А. Темурнинг европа қироллари билан ёзишмалари. Самарқанд. 1996
58. Хошимова Д. Ўзбек халқи этногенези масаласи. Тошкент. 1995.
59. ХўжаевА., Хўжаев Қ. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши. Т. 2001
60. Шарқшунослик (альманах) №№1-11. – Т., 1990-2002
61. Шониёзов К. III. Ўзбек халқининг шаклланиш жараёни. –Т.: “Шарқ”. 2001.
62. Шониёзов К. III. Қанғ давлати ва қанғлилар. Тошкент. 1992
63. Шониёзов К. III. Ўзбеки-қарлуки. Тошкент. 1964
64. Юдин. В. П. Материаль по истории казахских ханств XV-XVIII вв., Алма-Ата.
65. Юсуф Хос Ҳожиб. Қутадғу билиг. – Т.: «Юлдузча», 1990.

Internet resurs materiallari:

www.humanities.edu.ru

www.militera.lib.ru/h/caesariensis/app.html

www.auditorium.ru/books/492/p2s1c1.pdf

www.hist.msu.ru/ER/Etext/

www.lib-history.info

www.eastlib.narod.ru/

www.vostlit.info/

www.annals.xlegio.ru/

www.xlegio.ru/

www.e-tarix.uz

www.natlib.uz